

Mamatqulova Salomathon Abdullajonovna

Axborot – resurs markazi elektron bo`lim mudiri

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Quchqarova Zulhumor

Axborot – resurs markazi kutubxonachisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola kitob mutolasi, kitobxonlik, kutubxonachi hamkorligi va uning foydalari haqida. Shuningdek maqolada kutubxonachi kitobxonning yosh toifalari va ular bilan qanday ishlash haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit soʻzlar: *kitobxonlik, kutubxona, tashabbus, ilm, oʻzlashtirish, ta'lim sifati.*

Аннотация: *В статье речь пойдет о чтении книг, чтении, библиотечном сотрудничестве и его преимуществах, а также о возрастных категориях библиотекарей-читателей и о том, как с ними работать.*

BOOKS, READING AND LIBRARY IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

Abstract: *This article is about book reading, reading, librarian collaboration and its benefits. The article also contains information about the age categories of librarian-readers and how to work with them.*

Key words: *reading, library, initiative, science, learning, quality of education.*

“Kutubxonachi kasbi –qolgan barcha kasblarni chuqur oʻrganishiga zamin yaratadigan yagona kasbdir.“Kutubxonachi”- bu kasbga oshnolik ona tarbiyasi orqali singgan boʻlib, buyuk ajdodlar avlodi ekanidan faxrlanadigan va ularga munosib boʻlishga intiladigan, ularga togʻri yoʻl koʻrsatayotgan ustoz va murabiylar bilan bir qatorda fidoyi insonlar boʻlishi kerak. Har bir jamiyat oʻziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Jamiyat taraqqiyotining pirovarda maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechishidir. Jamiyat talablariga toʻliq javob beradigan kishi, avvalo taʼlim-tarbiyasi bilan, ilmi bilan yaqqol namayon boʻladi. Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-3775-sonli Qarorlarida koʻrsatilgan vazifalarni amalga oshirish, xususan badiiy adabiyot insoniyat hayotini charogʻon etishi, inson umriga nurafshonlik baxsh etib, maʼnaviy olamini shakllantirishi va yuksaltirishi, porloq kelajak uchun munosib toʻgʻri yoʻlni tanlashga yordam berishi, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyot ekanligi bois har qanday davr va zamonda kitob oʻqish, kitobxonlik madaniyatini targʻib qilish dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Respublikada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 — 2020-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning 5 ta qarori qabul qilindi, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-mart kuni yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Ushbu beshta tashabbusning to'rtinchisi, ya'ni aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatda 11 092 ta kutubxona va axborot resurs markazlari mavjud, shundan, 9911 tasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumta'lim maktablarida, 981 ta oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, 14 tasi hududlarda, 186 tasi tuman (shahar)larda faoliyat ko'rsatadi.

Ayniqsa, bugungi kunda davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan mazkur masalalarga davlat siyosati darajasida qaralib, samarali ishlar yo'lga qo'yildi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar, avvalo, xalqning ijtimoiy turmushini yaxshilashga, ma'naviy-ma'rifiy tafakkurini yuksaltirishga, barchaga birdek go'zal va farovon hayotiy muhit yaratishga erishishga qaratildi.

Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani hamda xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga jiddiy ahamiyat berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan joylarda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarni kutubxonachi muntazam o'tkazib borishi "Kitobxon haftaligi", "Bir oyda 10-kitob ,bir yilda 100 kitob bilan do'stlashdim" , "Zukko kitobxon" va "Zakovot" ko'rik tanlovlari Axborot-resurs markaziga kelib tushgan yangi adabiyotlar taqdimotini o'tkazib borish ,bundan tashqari hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib tezkor axborot almashuvli davrda kitobxonlarga qiziqarli kitoblarni audiotoriyasiga qarab targ'ib qilish onlayin "Anketalar",savol -javoblar o'tkazish,qiziqarli ,tarbiyaviy ahamiyatga ega kitoblarni qisqacha annatasiysi va audio eshittirish or`qali kitobxonni kutubxonga jalb qiliinib kelinmoqda.

Bu yurtimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarida ham yaqqol aks etgan: “Ayni paytda, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e‘tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. (“XXI asr”, 2016, 20 oktabr)

Farzand tarbiyasidagi eng asosiy omillaridan biri bu kitob mutolaasidir.

“Kitob”, “kitobxonlik”, “kutubxona” so‘zlarning o‘zagi aslida arabchadan olingan va bir maqsadga? ya‘ni inson ma‘naviyatini boyitishga xizmat

Kitob maslahatchi, sadoqatli hamroh, eng yaqin do‘st va bebaho boylik hisoblanadi. Inson hayotida uning o‘rni muhim. Millatning ma‘naviy-ruhiy dunyosini kitobga bo‘lgan munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo‘shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir.

Yurtimizda yetishib chiqqan, buyuklik darajasiga yetgan bobolarimiz qoldirgan hadislarda jamul-jam bo‘lgan ma‘nolar zukko va ma‘rifat talab kitobxonni aslo befarq qoldirmaydi.

Bunga uzoq va yaqin tariximizdan misollar ko‘p. **Masalan, ma‘rifatparvar vatandoshimiz Ishoqxon Ibrat o‘z uyida kattagina, boy kutubxona tashkil qiladi va uni “Kutubxonai Ishoqiya”, deb ataydi.** Ibrat arxividagi kitoblar ro‘yhati shuni tasdiqlaydiki, kutubxonada ta‘lim-tarbiya va o‘qitishga oid o‘zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillarida ko‘plab kitoblar bo‘lgan. Bu kutubxonadan nafaqat o‘zi, shuningdek, qishloq aholisi ham unumli foydalangan. Ishoqxon Ibrat o‘z maktabi o‘qituvchilarini kutubxonada saqlanuvchi kitoblar bilan ta‘minlagan. Kutubxonaning maktab o‘qituvchilariga bag‘ishlangan qismida Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, “Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yohud axloq”, Rustambek Yusufbek hoji o‘g‘lining “Rahbari hisob” kabi ko‘plab darslik, o‘quv qo‘llanmalari saqlangan. Ibrat kutubxonasi doimiy ravishda kattalashib borgan. U kutubxona a‘zolarining kitob olish va o‘qib bo‘lgach, uni topshirish daftarlarini ham tashkil qilgan, a‘zolarining, ayniqsa, yoshlarning kitob o‘qishlarini Ishoqxonning o‘zi nazorat qilib borgan. (Ibrat. Ajziy. So‘fizoda.-Toshkent, 1999.-38 bet)

«Ey Odam farzandi, so‘zing muloyim, amaling qabih bo‘lsa, unda munofiqlarning raisisan». Ilm ma‘rifatning qadr-qiyamati juda muhim. Olimning ilmiga amal qilishi undan muhimroq. Shu ma‘noda hadisi qudsiyda aytiladi: «Ey odam farzandi! Amalsiz ilm xuddi yomg‘irsiz chaqmoqqa o‘xshaydi. Ilmsiz amal xuddi mevasiz daraxtga o‘xshaydi. Amalsiz olim xuddi o‘qsiz kamonga o‘xshaydi». Har bir olim zoti bu buyuk haqiqatni anglashi lozim emasmi?

Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va

muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to'g'ri yo'lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas'ud bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kapidur.

Chunki ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug'iga, yor-do'stiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tarafda tursun o'z ustiga lozim bo'lgan ibodat va toatni ham loyiqicha qila olmas. Ilmning foydasi shu qadar ko'pdurki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur.

Bizlarni jaholat qorong'ulig'idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Alloh taologa muhabbat va e'tiqodimizni ortdurur, janobi Haqning azamat va qudratini bildirur. Alhosi, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidir. Payg'ambarimiz: «Ilmga amal qilguchilardan bo'lingiz, naql va rivoyat qilguchilardan bo'lmangiz», – demishlar.

Ilm bir daryo ichi to'lmish dur-u gavhar bilon, Qiymat-u qadrin qachon bilg'ay oni johil yilon.

Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir. Shariatimizda qaysi ilmga muhtoj bo'lsang, shuni bilmak bizga farzdur. Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakga jonimiz boricha sa'y qilmog'imiz lozimdur. Ma'naviyat sari yetaklaydigan, ilm-u urfon beshigi bo'lgan O'zbekistonimiz ko'plab bilimli salohiyatli yoshlarni komolga yetkazishda hissa qoshadigan ziyo tariqatishdek savobli ishlaridan biri kutubxonachilardir. Shunday ekan faqat ota -ona emas kutubxona xodimlari ham o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi, kitobxonlarga ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda yoshiga qarab kitob ta'nlab berishga yordam berish kerak.

Kitob bilim bulog'i, deydi donishmandlar. Bu buloqdan baxra olmagan inson bora-bora jaholatga yuz tutadi. Unday nusxalar har qanday tubanlikka qo'l urushi, odamgarchilikni esdan chiqarib, vijdonini arzimagan narsaga sotib yuborishi mumkin. Nazarimda, jamiyatning totuvligi, barqarorligini taminlash uchun faqat tadbirkorlarning ko'pligi yoki so'nggi rusumdagi libos kiygan odamlarning qator-qatorligi EMAS, balki ma'naviy salohiyati, savodxonligi, bilimdonligi bilan maqtanuvchilar mo'lligi ham zarurdir. **(42 son 2022 adabiyot ziyosi)**

Kitob o'qimaslik oqibatida, o'tgan asrning 80-yillarida, Yevropa va Amerika davlatlari aholisining katta qismida “funktional savodsizlik” deb atalgan ijtimoiy muammo paydo bo'ldi. Bu nima? YUNESKO tashkiloti mas'ullarining ta'kidlashicha, bu atama o'qish va yozish ko'nikmalarini ma'lum darajada yo'qotgan, shuningdek, kundalik hayotga aloqador qisqa, sodda matnlarni ham o'qib anglay olmaydigan shaxslarga, yani avval o'qish yozishni bila turib, so'ngra bu ko'nikmani yo'qotganlarga nisbatan qo'llanar ekan. Muammoning oldini olish maqsadida 1990 yilda YUNESKO tashabbusi bilan “Xalqaro savodxonlik yili” deb e'lon qilingan. Chunki shunday

tashvishili hol barcha rivojlangan davlatlarda kuzatilgan. Fransuz olimlarining fikricha, funksional savodsiz kishilar maktabda yaxshi o'qimaslik, madaniy muassasalardan foydalanmaslik va boshqa sabablar oqibatida kelib chiqadi.

G'arb davlatlarida o'tgan asrning 80-yillarida keng jamoatchilik orasida bolalar va o'smirlarda uchraydigan "mutolaa inqirozi" masalasi ham qizg'in muhokamaga sabab bo'lgan. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi borasida Germaniyada televideniye va ommaviy axborot vositalari (hozir Internet) yetakchi o'ringa chiqib, kitob o'qish ikkinchi darajaga tushib qolgani, har uchinchi o'smir funksional savodsizga aylangani aniqlangan. Sharqiy Evropada, Polshada o'tgan asrning 90-yillari ikkinchi yarmida ayrim yoshlar virtual olamga shunchalik bog'lanib qolganki, ular bu kunda 18 soatgacha Internet qarshisida o'tirishgan. Ruxiy jihatdan internetga qaramlik giyohvandlikka tenglashtiriladi. Turli tadqiqotlarga ko'ra, hozirgi paytda dunyo bo'yicha Internetdan foydalanuvchilarning o'n foizi mana shu guruhga mansub va ular ruhiy xasta hisoblanadi. *(2022 yil 22aprel 14 soni O'zbekiston adabiyoti va san'ati)*

Kattalar uchun kitob kutilmagan hodisalarga qanchalik boy bo'lmasin, ular o'z hayot dunyosi va hayot tajribasi bilan hukm chiqaradi. Bolalikda esa kitob yangi hayotni o'rganishda bamisoli kashfiyotdir.

Bugungi kunda yurtimizda kitob va kitobxonlikka bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshdi. Talabga munosib taklif bo'lganidek, nashriyotlarimiz ham ancha faollashib kundan kunga yangi kitoblarni nashr etmoqda. Ammo farzandlarini ijtimoiy tarmoqlar olamidani kitob dunyosiga qiziqitira olmay halak bo'layotgan ota-onalarimiz ham yo'q emas.

Psixologlar bu borada "Agar farzandingiz kitob o'qishini istasangiz, avvalombor, o'zingiz kitob o'qishni boshlang. Kichikligidan kitobga bo'lgan mehrni uyg'oting. Farzand uyda gazeta o'qilayotganini, kitob varaqlayotganini, kitobdan nimadir o'rganilayotganini ko'rib katta bo'lishi kerak. Farzandingizni kitob do'konlariga olib borib, kitoblarni tanishtiring, o'zi istagan kitobini varaqlab ko'rishiga imkon bering. Bolangiz bilan imkon qadar har kuni kitob o'qing, o'qing hikoya va ertaklarni so'zlab berishga o'rgating. O'zingiz kitob o'qimasangiz, uyingizda kitob bo'lmasa va ertalab shoshib kelayotganingizda "telefonimni unutmadimmi?" desangiz, farzandingiz ham o'yinchoq telefon olib berishingizni talab qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, devorning birinchi g'ishtini siz qo'yar ekansiz, uni aniqlik bilan qo'ysangiz, uying poydevori ham mustahkam bo'ladi", deya maslahat berishadi. Va albatta, yaqin kelajakda bilimga kiritilgan investitsiya kelajakni kafolatlaydi.

Shu o'rinda kitob haqidagi 10 faktni eslatib o'tmoqchiman:

1. Kitob o'qish stressni 68 foizgacha kamaytirishi mumkin va asbni tinchlantiradi.
2. Mutolaa so'z boyligini oshirib, yozuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi.
3. Mutolaa uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi.

4. Kitob o'qish odamni yoqimtoy ko'rsatadi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, jamoat joyida kitob o'qiyotganlar chiroyli va aqlli ko'rinishar ekan. Qo'ldagi kitob insonning hurmatini oshirar va boshqalar e'tiborini tortar ekan.

5. Mutolaa moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, umuman kitob o'qimaydigan insonlarning 43 foizi qashshoqlikda yashaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, kitob o'qish uchun ishtiyoq, xohish bo'lishi kerak. Yoshlarning qiziqishini oshirish uchun, avvalo, oilada kitobxonlik muhitini shakllantirish lozim. *(Ma'rifat 2022 yil 25 mart 11 son)*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.2017-2021 yillarga mo'ljallangan"O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"4.4-bandi "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish. Toshkent "Ma'naviyat" 2017 -yil .-190-bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori.Xalq so'zi .-2017 yil .

3.Kaykovus.Qobusnoma .-O'qituvchi .-2011.-121-bet.

3.Yuldasheva S.Kitob mutollasini shakllantirishda kutubxonachilik faoliyati// Oriental ART and Culture/-2019.-№.IV(1).

4. Yuldasheva S.Kitob mutollasini shakllantirishda kutubxonachilik faoliyati// Oriental ART and Culture/-2020.-№.I.(2).